

TARBIYAVIY ISHLARNI TAKOMILLASHTIRISHDA INOVASION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.

Axmadaliev Berdiali Saydalievich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

p.f.f.d., dotsent.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14182189>

Аннотация. Maqolada oliy ta'lim tizimida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning pedagogik zarurati haqidagi fikr-muloxazalar bayon etilgan. Shuningdek, oliy ta'lim jarayonida tarbiyaviy ishlarni tashkil etish mazmuni va mezonlari ilmiy manbalar asosida yoritilgan. O'quv tarbiya jarayoni mazmuniga qo'yiladigan talablar va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish bo'yicha metodik tavsiyalar berilgan.

Калит so'zlar: tarbiya, g'oyaviy, axloqiy, estetik, insoniylik, bag'rikenglik, ma'naviyat, qadriyat, tamoyil.

USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN IMPROVING EDUCATIONAL WORK.

Abstract. The article describes the views on the pedagogical necessity of organizing educational work in the higher education system. Also, on the basis of scientific sources, the content and criteria of the organization of educational work in the process of higher education are highlighted. The requirements for the content of the educational process and methodological recommendations for the organization of educational work are given.

Keywords: education, ideological, moral, aesthetic, humanity, tolerance, spirituality, values, principles.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ УЧЕБНОЙ РАБОТЫ.

Аннотация. В статье описываются взгляды на педагогическую необходимость организации воспитательной работы в системе высшего образования. Также на основе научных источников освещаются содержание и критерии организации воспитательной работы в процессе высшего образования. Даны требования к содержанию учебного процесса и методические рекомендации по организации воспитательной работы.

Ключевые слова: воспитания, идеологическое, нравственное, эстетическое, гуманность, толерантность, духовность, ценности, принципы.

Jahonda ta'lim, ijtimoiy-madaniy munosabatlardagi tub o'zgarishlar, jamiyatning globallashuvi va axborotlashuvi sharoitida oliy ta'limni modernizatsiyalashga oid innovatsion yondashuvlar (Tempus va Erasmus+ dasturlari, Evropa Kengashi ta'lim siyosatining konseptual qoidalari) ta'limning intellektual, madaniy, ijtimoiy va texnik asoslarini mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, bo'lajak mutaxassislarni tarbiyalashda pedagogik klaster yondashuvini makro, mezo, mikro darajalarda joriy etish zaruratini taqozo etmoqda.

YUNESKO ning Berlin deklaratsiyasi va "Ta'lim-2030" xalqaro harakat dasturida ta'kidlanishicha, ta'lim va tarbiyaviy ishlarni rivojlantirishda innovatsiyalarni qo'llashning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Bugungi kunda pedagogik oliy ta'lim muassasalarida klaster yondashuvi asosida tarbiyaviy ishlarni takomillashtirishning didaktik imkoniyatlarini tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3151-son qarorida "Talaba-yoshlarning ma'naviy immunitetini mustaxkamlash, ularda yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalash, ularning kasbiy kompetentligi bilan insoniy fazilatlarini uyg'unlashtirish, professor-o'qituvchilarning tarbiyaviy mas'uliyatini oshirish, ta'lim va tarbiya uyg'unligini amalda ta'minlash uchun fanlarning har bir mavzusidagi tarbiyaviy maqsaddan unumli foydalanilishini ta'minlash mexanizmlarini ikki oy muddatda ishlab chiqilisini"¹ deb belgilangan vazifalar zahirida tarbiyaviy ishlarni tashkil etish, takomillashtirish mexanizmlarni ishlab chiqish va ulardan foydalanish asosiy maqsad qilib qo'yildi.

Tarbiyaviy ishlarni takomillashtirishning inovasion yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- belgilangan tadbirlarning yuqori darajada uyushqoqlik bilan o'tkazilishini ta'minlash;
- ma'naviyatni, milliy g'oyaning targ'iboti sifatini muntazam oshirib borish;
- davr talablaridan kelib chiqqan holda ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning yangi, samarali yo'llarini izlash;
- ma'naviy-ma'rifiy ishlar va tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etishda ijtimoiy muhitni hisobga olish;
- tarbiyaviy faoliyatning qanchalik samarali olib borilayotganini bilish maqsadida uning monitoringini tashkil etishdan iborat.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va ma'naviy muhitni takomillashtirishda quyidagi pedagogik klasterli yondashuvning tashkiliy tamoyillarga amal qilinishi maqsadga muvofiq:

- **keng qamrovlilik**, bunda talaba va professor-o'qituvchilar, ishchi xodimlar va rahbariyat orasida sog'lom muhit hosil qilish. Natijada, oliy ta'lim muassasalarining barcha bo'g'inlari sog'lom muhit hosil qilinadi; - umumiy maqsadga yo'naltirilganlik; - faol insonni tarbiyalash va inson salohiyatini yuzaga chiqarish bosh maqsadi qilib olinadi chunki bugungi kunda ma'naviy va ma'fkuraviy imuniteti shakllangan kadrlarni tayyorlash dolzarb sanaladi.

- **uzluksizlik** – ma'naviy-ahloqiy, tarbiyaviy ishlar hamma makonda va zamonda doimiylikni, uning yaxlit tizim shakliga keltirilishini anglatadi. Uzluksizlik tamoyili ma'naviy-ahloqiy, tarbiyaviy ishlarni samaradorligini oshirish va sog'lom muhit yaratishni taqozo qiladi.

- **ketma-ketlik** – ma'naviy muhitni takomillashtirishda har bir bosqich uchun istalgan qadriyatlarni singdirish maqsadida mafkuraviy tashviqot rejalashtiriladi;

- **bosqichma-bosqichlik** - ma'naviy-ahloqiy, tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish ruhiy jihatlari bilan bog'liq bo'lib, tashkil etuvchilar, tashabbuskorlar, tashkilotchilarning muayyan tayyorgarlik bosqichlaridan o'tishini taqozo qiladi. Shuning uchun bog'chada, boshlang'ich sinflarda, umumiy o'rta maktabda, yuqori sinflar, akademik litsey va kollejlarda, oliy o'quv yurtlari va mehnat jamoalarida ma'naviy sog'lom muhit va talabalarning yoshi, bilimi, ma'lumoti kabi jihatlarni hisobga olib aniq belgilangan reja asosida olib borilishi kerak;

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarda meyor, shaxsiy ibrat va boshqarish.

1 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 27 июлдаги "Олий маълумотли мутахассислар тайёрлаш сифатини оширишда иқтисодиёт соҳалари ва тармоқларининг иштирокини янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида" ПҚ-3151-сон қарори

-me'yoriylik – aksil targ'ibotni keltirib chiqaradigan, hayotdan uzilib qolishga olib keladigan balandparvozlik, rasmiyatchilik va takrorlanishlarga yo'l qo'ymaydi;

-shaxsiy ibrat – ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar va milliy va umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib qilishda muvaffaqiyatni ta'minlaydigan muhim omillardan biri. Oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisi darsda talabalarga tarbiya va ahloq haqida balandparvoz gaplarni gapirsa-yu, o'zi hayotda shu gaplarga zid ishlarni qilsa, bunday tarbiyaviy ishlarning samarasi nolga teng bo'ladi.

Korxona, tashkilot, muassasa rahbari, ular davlat sektori yoki xususiy sektorga tegishli bo'lishidan qat'iy nazar o'z jamoasidagi ma'naviy tarbiyaviy jarayonlarga mas'ul.

Tarbiya tizimini rivojlantirishning hozirgi bosqichida talabalarni tarbiyalashning yangi vositalarini izlash tobora dolzarb vazifaga aylanib bormoqda. Ijtimoiy institut sifatida **maktabgacha, umumiy o'rta, professional, oliy ta'lim, mahalla va oilani** pedagogik klaster yondashuv asosida o'zaro hamkorlik zanjirini tuzish uchun tarbiya jarayonini tashkil etish muammosi eng muhim masalaga aylangan.

Shunday qilib tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning innovasion usullari bir necha hil bo'lib, ular darslarda jamoviy, individual, guruhli tarzda amalga oshirilasa, turli tadbirlar rasmiy uchrashuvlar jamoviy va ommoviy tarzda amalga oshiriladi.

Dars mashg'ulotlarida tarbiyaviy ishlarni interfaol o'yin tarzida tashkil etish.

Interfaol o'yin ta'lim va tarbiya usuli bo'lib, uning mohiyati o'zaro tashkil etish va mulohaza yuritish asosida muammoning jamoaviy echimini ishlab chiqish uchun talabalar o'rtasidagi muloqotni tashkil etish.

Interfaol o'yinni tashkil etish bosqichlari.

1. Muammoli vaziyatga kirish, muammoni shakllantirish, talabalarning o'quv va kognitiv faoliyatining maqsad va vazifalarini belgilash, o'yin qoidalarini aniqlash.

2. Ijodiy jamoalarni shakllantirish (har biri 3-5 kishidan). Moderatorlarni tanlash (samarali muloqot tashkilotchilari).

3. Jamoalarda izlanish va kognitiv faoliyat olib borish.

3.1. O'yinchilarning o'z faoliyatini o'zi belgilashi, muammoni ko'rishi. Nima bo'ldi?"

Afzal vaziyatdan farqli ravishda qanoatlantirmaydigan faktlar qanday? Ushbu bosqich faktik va ob'ektivdir. Guruh a'zolari muammoni hal qilish uchun kerakli ma'lumotlarni yig'adilar.

3.2. Echimlarni izlash (aqliy hujum). Jamoa a'zolaridan ko'p tasavvur talab qiladi. Jamoa a'zolaridan biri barcha taklif qilingan echimlarni yozib boradi. Jamoa moderatori doimiy ravishda faollik asosida barchaga motivasiya ulashib jamodashlarini rag'batlantirib borishi va jamoaviy munosabatlarni erkin ifodalash lozim;

3.3. Qaror qabul qilish. Guruh a'zolari taklif qilingan echimlarni tahlil qiladilar, ulardan ba'zilarini tashlab, boshqalarni birlashtiradilar va barchani qoniqtiradigan yakuniy qarorga keling ishtirokchilar.

3.4. Jamoa qabul qilingan qaror asosida topshiriqning bajarilishi haqida hisobot tayyorlash.

4. Hisobotlarni taqdim etish.

4.1. Guruh ish mazmuni haqida hisobot beradi.

4.2. Jamoalarning hisobotlarini (dasturlarini, loyihalarini) muhokama qilish, kerak bo'lganda o'zgartirish, kelishilgan fikrni ishlab chiqish.

5. Tekshiruv va refleksi!.

Muammo hal bo'ldimi, maqsadga erishildimi? hamma tomonidan vaziyat tushunildimi?

O'yinning borishi va natijalarini aks ettirish, ishtirokchilarning uni davom ettirish zarurligiga munosabati.

6. Natijada muammo echimlari va umumiy hulosaga kelish.

Shuni ta'kidlash kerakki, jamoaviy va individual aks ettirish

o'quvchilarning faolligi interaktiv o'yin samaradorligining tizimli omilidir.

Tarbiyaviy ishlar turli-tuman bo'lishi, tarbiyalanuvchilarning tarbiyaviy ishlarni uzoq eslab yurishiga asos bo'ladi. Tarbiyaviy ishlarda har doim yangilik topish qiyin, ammo ularni topishga harakat qilish zarur. Tarbiyaviy ishlar zaxirasida ko'plab qiziqarli tadqiqotlar mavjud va bu takrorlamaslikni, aksincha, aniq sharoitlar bilan muvofiqlashtirgan holda rivojlantirishni kafolatlaydi.

Tarbiyaviy ishlar his-tuyg'ularning qudratli katalizatori kabi loyixalashtiriladi. Ma'lumki, hayajonga tushgan kishi nixoyatda ta'sirchan bo'ladi. Har bir tarbiyaviy ishda talabaga yaqin, xamohang bo'lgan jihatlarni topish va unda ijobiy xarakter xislatlarini rivojlantirish, mustahkam hayot tarzini shakllantirish, tarbiyaviy ishlar yo'nalishini takomillashtirishni taqozo etadi.

REFERENCES

1. Saydalievich A. B. THEORY AND PRACTICE OF IMPROVING THE MECHANISMS OF COOPERATION IN EDUCATIONAL ACTIVITIES (ON THE EXAMPLE OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS) //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – T. 2. – №. 11.
2. Shanasirova Z. Y., qizi Abdurasulova G. D. TA'LIM KLASTERI MUXITIDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTINING METODIK ISHLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH //Educational Research in Universal Sciences. – 2024. – T. 3. – №. 1 SPECIAL. – C. 707-716.
3. Saydalievich A. B. THE PEDAGOGICAL NECESSITY OF ORGANIZING EDUCATIONAL WORK //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 4. – C. 501-506.
4. Saidaliyevich A. B. The Importance of National Values in Educating Young People to Believe in the Motherland. – 2022.
5. Ахмадалиев Б. С., Хайриддинов Б. К. МАСОФАВИЙ ТАЪЛИМДА ЎҚИТИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ ТЕХНИК ВОСИТАЛАРИ ВА УЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 334-338.
6. Axmadaliyev B. S. OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TARBIYAVIY ISHLARNI TASHKILLASHTIRISHNING INNOVASION USULLARI //МУ АЛИМ ЁЎМ ЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИ². – С. 235.
7. Nematovich F. U. THE CONCEPT OF PREPARING FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS FOR CREATIVE ACTIVITIES //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2020. – T. 8. – №. 6.
8. Фармонов У. Н. CREATIVE TASKS OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS //European Science. – 2020. – №. 4. – C. 47-49.

9. Farmonov U. N. Didactic of Training Future Primary School Teachers to Creative Activity //Eastern European Scientific Journal. – 2017. – №. 5.
10. qizi O‘razaliyeva S. T., Xolnazarova M. F. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA AQLIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI //INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING. – 2022. – T. 1. – №. 8. – C. 591-594.
11. qizi O‘razaliyeva S. T., Ustayeva D. N. MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARDA SOG ‘LOM RAQOBATNI SHAKLLANTIRISH INTELEKTUAL SALOHİYATINI OSHIRISH //INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING. – 2022. – T. 1. – №. 8. – C. 577-580.
12. Abdumutalovna A. M. TA’LIM VA TARBIYANING BIR-BIRIDAN FARQLOVCHI HAMDA BIRLASHTIRUVCHI JIHATLARI //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – T. 2. – №. 1. – C. 347-349.
13. Buraimov I., Kazoqov R. XOKKEYCHILAR FAOLIYATINING FIZIOLOGIK XUSUSIYATLARI //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 11. – C. 49-56.
14. Балтаева И. Т. и др. CREATING AN INFORMATION-EDUCATIONAL ENVIRONMENT USING MODERN INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES //MODERN SCIENCE AND RESEARCH. – 2024. – T. 3. – №. 2. – C. 700-708.
15. Umarov D. X. et al. THE EFFECTIVENESS OF USING A SET OF SPECIAL EXERCISES IN ANNUAL PREPARATION TRAINING OF SHORT-DISTANCE RUNNERS //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 2. – C. 742-753.
16. Jumayev U. X. et al. " PEDAGOGICAL EDUCATION INNOVATION CLUSTER" MEANS COMMON GOALS AND SPECIFIC INTERESTS //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 2. – C. 552-560.
17. Turopovich K. R., Rixsibayevna D. S. ENHANCING ENGLISH LANGUAGE LEARNING THROUGH PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES. – 2024.
18. Kazakov R. T. et al. MULTIMEDIA SYSTEMS AND DISTANCE LEARNING TECHNIQUES IN SPORTS SOX //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 9. – C. 99-105.
19. Казоков Р. Т. и др. МАМЛАКАТИМИЗ ЯНАДА ЮКСАЛИШИДА БОЛАЛАР СПОРТИНИНГ ЎРНИ //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 9. – С. 5-11.
20. Казоков Р. Т. и др. ПЕДАГОГИКА ОЛИЙ ТАЪЛИМДА КЕЙС-СТАДИ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИ АСОСИДА ПЕДАГОГИК МАҲОРАТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ЮЗАСИДАН ТАЖРИБА-СИНОВ ИШЛАРИНИНГ НАТИЖАЛАРИ //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 111-115.
21. Казоков Р. Т. Кейс стади технологияларидан фойдаланиб талабаларнинг масофавий таълим технологиялари асосида педагогик маҳоратини шакллантириш //Замонавий футболни ривожлантириш тенденциялари: муаммо ва ечимлари. – Т. 11. – №. 1.

22. Jumayev U. X. et al. " PEDAGOGICAL EDUCATION INNOVATION CLUSTER" MEANS COMMON GOALS AND SPECIFIC INTERESTS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 552-560.
23. Musaeva U., Mirzaeva U. Дерматоглифические показатели как критерии для прогнозирования уровня развития двигательных качеств у спортсменов с учетом этнических особенностей //Sport ilm-fanining dolzarb muammolari. – 2023. – Т. 1. – №. 3. – С. 110-112.
24. Achilov O. H. TO INCREASE THE INTEREST OF ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS IN SPORTS AND TO MAKE THEM REGULARLY ENGAGE IN SPORTS //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 1. – С. 218-220.
25. SEIDALIEVA L. D., MUSAIEVA U. A., KHAIDAROV T. S. Comparative Assessment of Physical Development and Component Composition of the Body Weight of Sportswoman Participated in Gymnastics //Texas Journal of Multidisciplinary Studies. – 2023. – Т. 17. – С. 87-90.
26. Musaev M. T., Musaeva U. A. JISMONIY FAOLLIK VA UNING INSON SALOMATLIGINI MUSTAHKAMLASHDAGI AHAMIYAT //Academic research in educational sciences. – 2023. – №. 1. – С. 267-273.
27. Safarova D. D., Musaeva U. A., Khushvakova N. Y. ПОКАЗАТЕЛИ ПАЛЬЦЕВОЙ И ЛАДОННОЙ ДЕРМАТОГЛИФИКИ В АСПЕКТЕ ПОЛОВОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 1. – С. 326-332.
28. Umarov D. X. et al. THE EFFECTIVENESS OF USING A SET OF SPECIAL EXERCISES IN ANNUAL PREPARATION TRAINING OF SHORT-DISTANCE RUNNERS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 742-753.
29. Jumayev U. X. et al. " PEDAGOGICAL EDUCATION INNOVATION CLUSTER" MEANS COMMON GOALS AND SPECIFIC INTERESTS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 552-560.
30. Boltayeva I. T., Tashnazarov D. Y., Kazaqov R. T. TECHNICAL-TACTICS OF 13-14-YEAR-OLD FOOTBALL PLAYERS EFFICIENCY OF EDUCATIONAL ACTIONS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 6. – С. 91-98.
31. Kazoqov R. et al. MARKETING TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SPORT TASHKILOTLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YOLLARI //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 10. – С. 572-578.
32. Aripov Y. Y. et al. PROFESSIONAL SPORTNI BOSHQARISH MODELLARI //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 10. – С. 597-587.
33. Jumayev U. X. et al. SPORT SOHASIDA MARKETING FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 10. – С. 588-597.
34. Умаров Д. Х. и др. USE OF NATIONAL-SPIRITUAL VALUES IN EDUCATIONAL ACTIVITIES OF PRE-SCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 10. – С. 455-462.
35. Рахматова Д. Н. и др. EXPERIMENTAL WORK ON THE ORGANIZATION OF SPIRITUAL AND EDUCATIONAL WORK AND ITS RESULTS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 10. – С. 447-454.

36. Djalilova S., Tursunboyeva L., Kazakhov R. ENGAGING ENGLISH LANGUAGE LEARNING THROUGH SPORTS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 10. – С. 386-395.
37. Tursunboyeva L., Djalilova S., Kazoqov R. ABOUT TEACHING SPEAKING //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 10. – С. 376-385.
38. Jumayev U. X. et al. " PEDAGOGICAL EDUCATION INNOVATION CLUSTER" MEANS COMMON GOALS AND SPECIFIC INTERESTS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 552-560.
39. Boltayeva I. T., Tashnazarov D. Y., Kazaqov R. T. TECHNICAL-TACTICS OF 13-14-YEAR-OLD FOOTBALL PLAYERS EFFICIENCY OF EDUCATIONAL ACTIONS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 6. – С. 91-98.
40. Boltayeva I. T. et al. ANATOMY OF THE EXACT AND NATURAL SCIENCES TEST TASK //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 6. – С. 99-105.
41. Казоқов Р. Т. и др. ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ТАРБИЯВИЙ ТАДБИРЛАРДА МИЛЛИЙ-МАЪНАВИЙ ҚАДРИЯТЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ. – 2024.
42. Djurayeva X. X., Xodjiyev R. M., Kazoqov R. T. DIFFICULTIES IN TEACHING RUSSIAN AS A FOREIGN LANGUAGE //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 316-326.
43. Beknazarov S. H. Q., Kazoqov R. T. IDEOLOGICAL THREATS AND IMPORTANT PROBLEMS OF IDEOLOGICAL EDUCATION, NATIONAL HISTORICAL THINKING //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 1016-1029.
44. Boltayeva I. T. et al. ANATOMY OF THE EXACT AND NATURAL SCIENCES TEST TASK //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 6. – С. 99-105.
45. Бойқобиллов А. П. и др. ТУРЛИ МАЛАКАЛИ СПОРТЧИЛАР ТОМОНИДАН ЯДРО УЛОҚТИРИШНИНГ НАЗАРИЙ ТАҲЛИЛЛАРИ //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 10. – С. 30-40.
46. Авезова Г. С., Казоқов Р. Т. ҚИСҚА МАСОФАГА ЮГУРУВЧИЛАРНИ МАШҒУЛОТ ЖАРАЁНИДА ҚЎЛЛАНИЛГАН ТИКЛОВЧИ ВОСИТАЛАРНИ ЖИСМОНИЙ ТАЙЁРГАРЛИГИГА ТАЪСИРИ //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 10. – С. 205-214.
47. Шопулатов А. Н., Казоқов Р. Т., Хайдарова Г. М. ҚИСҚА МАСОФАГА ЮГУРУВЧИЛАРНИ ЖИСМОНИЙ ТАЙЁРГАРЛИГИНИ БАҲОЛАШ //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 10. – С. 197-204.
48. Бойқобиллов А. П. и др. ТУРЛИ МАЛАКАЛИ СПОРТЧИЛАР ТОМОНИДАН ЯДРО УЛОҚТИРИШНИНГ НАЗАРИЙ ТАҲЛИЛЛАРИ //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 10. – С. 30-40.
49. Yugay L. P. et al. RECOVERY OF THE BODY OF SHORT-DISTANCE RUNNING ATHLETES DURING SPORTS TRAINING //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 1. – С. 365-371.
50. Akbarov A. et al. ANTHROPOMETRIC-PHYSIOLOGICAL INDICATORS OF MIDDLE-DISTANCE RUNNERS AND RECOVERY OF THEIR BODY DURING TRAINING //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 1. – С. 358-364.